



Xamidullo XAKIMOV,

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Professor, f.f.d. R.Shirinova taqrizi asosida

HOZIRGI ZAMON INGLIZ TILIDAGI JAMLIK VA PARTITIVLIKNI IFODALOVCHI OTLARNING SHAKLLARI VA MA'NOSI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tilidagi jamlovchi va partitiv otlarning tarixiy taraqqiyoti, ularning semantik, morfologik hamda funksional xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida qadimgi, o'rta va yangi ingliz tili davrlarida jamlovchi otlarning shakllanishi va rivojlanishi diaxronik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, fransuz tilidan kirib kelgan suffikslar yordamida hosil qilingan jamlovchi otlarning ingliz tilidagi o'rni ham ko'rib chiqiladi. Maqolada metonimik ma'no ko'chishi natijasida yakka predmet ma'nosini bildiruvchi otlarning jamlik ma'nosida qo'llanishi ham misollar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: jamlovchi ot, partitiv ot, diaxronik tahlil, semantik taraqqiyot, ingliz tili, metonimiya.

ФОРМЫ И ЗНАЧЕНИЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ, ВЫРАЖАЮЩИХ СОБИРАТЕЛЬНОСТЬ И ПАРТИТИВНОСТЬ В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье исследуются историческое развитие собирательных и партитивных существительных английского языка, а также их семантические, морфологические и функциональные особенности. В ходе исследования проводится диахронический анализ формирования и развития собирательных существительных в древнеанглийский, среднеанглийский и новоанглийский периоды. Особое внимание уделяется существительным, образованным с помощью французских суффиксов, вошедших в английский язык. Также рассматривается употребление существительных с единичным значением в собирательном смысле вследствие метонимического переноса значения.

Ключевые слова: собирательное существительное, партитивное существительное, диахронический анализ, семантическое развитие, английский язык, метонимия.

FORMS AND MEANINGS OF NOUNS EXPRESSING COLLECTIVITY AND PARTITIVITY IN MODERN ENGLISH

Annotation

This article investigates the historical development of collective and partitive nouns in the English language as well as their semantic, morphological, and functional features. The study provides a diachronic analysis of the formation and evolution of collective nouns in Old English, Middle English, and Modern English periods. Special attention is paid to collective nouns formed with French-derived suffixes in English. The article also examines the use of singular nouns in collective meanings as a result of metonymic semantic transfer.

Keywords: collective noun, partitive noun, diachronic analysis, semantic development, English language, metonymy.

Kirish. Hozirgi davr tilshunosligida turli til birliklari ma'nolarining til tarixiy taraqqiyoti jarayonida struktural, semantik va funksional-grammatik jihatdan rivojlanishi, yangi sifatga ega bo'lib borishi va ayrim xususiyatlarini yo'qotib borishi va shu kabi o'zgarishga uchrashini o'rganish, ularni bajarayotgan kommunikativ vazifasi nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb hisoblanadi (Abduazizov, 1999; Arutyunova, 1976). Jamlik, partitivlik ingliz tilida murakkab muammolardan bo'lib qolmoqda. Jamlovchi va partitiv otlarning mohiyatini ochib berish uchun ularni gapning konstruktiv-sintaktik strukturasi tarkibida o'rganish, ularning funksional qiymati, kommunikativ-semantik jihatdan tutgan o'rni va vazifasini aniqlash zarur (Akhmanova, 1963). Bu muammo hanz dolzarb bo'lib kelmoqda.

Tadqiqot metodi. Mazkur tadqiqot ingliz tilidagi jamlovchi va partitiv otlarning tarixiy taraqqiyoti, semantik xususiyatlari hamda funksional qo'llanishini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda kompleks lingvistik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida diaxronik, sinxronik, semantik, strukturaviy hamda qiyosiy-tarixiy metodlar asosiy ilmiy usul sifatida qo'llanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini til birliklarini tarixiy taraqqiyot jarayonida o'rganishga doir nazariy qarashlar tashkil etdi (Arakin, 1985; Antilla, 1972). Ingliz

tilidagi jamlovchi va partitiv otlarning shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlarini aniqlash maqsadida qadimgi ingliz, o'rta ingliz va yangi ingliz tili davrlariga oid yozma manbalar, badiiy asarlar va lug'atlar tahlil qilindi (Bately, 1980).

Tahlil va natijalar. Kuzatishlar shu narsani ko'rsatdiki, jamlovchi otlar tarkibining yangi otlar bilan boyishi XIX asrga to'g'ri keladi. Bu, asosan, fransuz tilidan kirib kelgan suffikslar yordamida german o'zaklaridan yangi so'zlar yasash orqali sodir bo'lgan (Arakin, 1985).

Fransuz tilidan kirib kelgan so'z yasovchi elementlar yordamida ingliz o'zaklaridan jamlovchi otlarni yasash uzoq vaqt davomida kam kuzatiladigan hodisa sifatida qarab kelingan va faqatgina XIX asrga kelib ularning miqdori orta bordi va ma'no ko'lamini ham sezilarli darajada kengayib ketdi (Antilla, 1972). Yangi so'zlarning ko'pchiligi shaxs, o'simliklar va turli xil narsalarni bildiruvchi otlardan yasala boshlandi.

Masalan: tenantry, leafery-barglar, garlandry, cavalry, elephantry, camelry (tuya mingan jangchilar), chariotry (jang aravalarida turib jang qilgan askarlar).

Quyidagi -ery(-ry), -age, -hood, -dom kabi qo'shimchalar yordamida yaratilgan so'zlar ham mana shu davrning mahsulidir: Angelry - farishtalar guruhi; blackguardy - ablahlar to'dasi; blanchery - shoxchalar; chieftainry -

dohiyalar; citirentry - shaharliklar; clercery - xizmatchilar korporatsiyasi; clubbery - klublar birlashmasi; coguheelery - tishli g'ildiraklar; costumery - kostyumlar; doggery - itlar to'dasi; felonry - jinoyatchilar; gillery - qizlar; goosery - g'ozlar; gossipry - mish-mishchilar to'dasi; Hallory - shlyapalar; heathenry-dinsizlar, kofirlar, dahriylar, shakkoqlar; helofry-qullar; hoggery-cho'chqalar; islandry - orol aholisi; knick-knackery-arzon taqinchoqlar; knight-erryntry-daydi ritsarlar; leafery-barglar; legendry-afsonalar; legionry - legionlar; mamelukery - mamluklar (yollanma turk jangchisi - askarlari); merchantry - savdogarlar; packery-tugunlar, bo'xchalar; parsonry - pastorlar; phantomry - arvohtarlar; ragamuffinry - yalangoyoqlar; reggery - yirtiq-yamoqlar; rascalry-muttahamlar; serpenry-ilonlar; servanry-xizmatkorlar; shopkeepery - do'kondorlar; studentry - studentlar, talabalar; trinketry - arzon taqinchoqlar; anecdotage-latifalar; baronetage-baronetlar qatlami; bloomage-gullar; branchage-shoxchalar; burgherage-shaharliklar; cartage-aravalar; companionage - sheriklar; dockage-doklar; lacktorage - agent, dallol; flowerage-gulzor; frondage - bargli shoxcha; gunnage - qurol-yarog'lar; knightage-ritsarlar; pipage-quvurlar; ruffianage-yaramaslar; suverage-kanalizatsiya quduqlari (Bahnik, 1973).

Quyidagi jamlovchi otlar -hood qo'shimchasi bilan yasalgan: Cousinhood - amakivachcha, tog'avachchalar, amnavacha, holavachchalar; Fairyhood-sehrgarlar, parilar, afsungarlar; Angelhood-farishtalar; Citizenhood-shaharliklar; Footmanhood - xizmatkorlar, yugurdaklar, malaylar; Gianthood-alplar, ulkan odamlar; Girlhood-qizlar; Squirehood-skvayrlar; Burgherhood-shaharliklar; Companionhood-hamtovoqlar, sheriklar.

Quyidagi -dom qo'shimchasi bilan yasalgan otlar ham mana shu davrga mansubdir: Fooldom - ahmoqlar olami; Monkdom-monahlar; Rascaldom-yaramaslar, muttahamlar; Studentdom-studentlar, talabalar; Squiredom-skvayrlar; Villadom-bir to'da villa joylashgan hudud; Burgherdom-shaharliklar; Doctorom-vrachlar; lunkeydom-lakeylar, malaylar, xizmatkorlar; Ruffiandom-yaramaslar, muttahamlar (Arakin, 1985).

Quyidagi -cracy qo'shimchasi bilan yasalgan jamlovchi otlar ham shu davr uchun xos: Aristocracy-aristokratiya; Democracy-demokratiya; Bureaucracy-byurokratiya; Ochlocracy-ohlokatiya (yalangoyoqlar sinfi); Plutocracy-plutokratlar sinfi (muttaham, firibgarlar); Slavocracy-quldorlar sinfi; Squirecracy-yirik yer egalari sinfi; Barristerocracy-advokatlar qatlami; Brokerocracy-maklerlar guruhi; Millocracy-fabrikantlar guruhi; Shipocracy-kema egalari; Schoddyocracy-sun'iy jun tolasini ishlab chiqaruvchilar; Beerocracy - pivo ishlab chiqaradigan zavodlar egalari; Clubocracy - klub a'zolari; Cottonocracy - plantatorlar sinfi; Countyocracy - graflikning eng obro'li, taniqli oilalari; Shopocracy - do'kondorlar (Alexander, 1996).

Suffikslar yordamida yasalgan ayrim jamlovchi otlar faqatgina u yoki bu holatni bildirish uchun xizmat qilgan va ular Oksford ingliz lug'atida nonce word deb belgilangan: Buckery-oliftalar; Cloudery-bulutlar; Crackery-qashshoqlar; Foolery-ahmoqlar; Gazetturage-jurnalistlar; Goddery - xudojo'y shaxslar jamiyati; Pannery - kastyullar; Clerkage-klerklar; Farmerage - fermerlar.

Yangi ingliz tili davrida qabul qilingan suffiksali yo'l bilan yasalgan jamlovchi otlarning miqdori u qadar ko'p bo'lmagan. Ular asosan quyidagilar: Cousinry-tog'avachcha, holavachcha, amnavachcha va amakivachchalar; Brigandage-qaroqchilar; Pelage-hayvonlar terisi; Vanalage-vassallar guruhi.

Yuqorida keltirilgan barcha suffiksli otlar aniq ma'noli jamlovchi otlar guruhiga mansubdir.

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga taalluqli bo'lgan badiiy asarlar, gazeta va jurnallarning tahlili shu narsani

ko'rsatdiki, hozirgi zamon ingliz tilida suffikssiz jamlovchi otlar juda ko'p (Ashurova, 2003). Bular jumlasiga jamlik ma'nosini ifodalamaydigan suffikslar yordamida yasalgan jamlovchi otlar ham kiritilgan: Army-qo'shin; Audience-publika; Band-orkestr; Battalion-batalyon; Battery-division, batareya; Cabinet-Vazirlar Mahkamasi; Choir-xor; Commission-komissiya; Committee-qo'mita; Commune-jamoa; Company-kompaniya, guruh; Cortege-kortej; Council-kengash; Court-sudyalar; Crew-kema ekipaji; Crowd-olomon va boshqalar.

Tadqiqot doirasida o'rganib chiqilgan materiallar asosida miqdor ma'nosini bildiruvchi jamlovchi otlarning quyidagi namunalarini aniqlanadi: Abundance-to'plam, ko'plik; Assembly-guruh; Array-massa, to'plam; Clan-sinf, guruh; Cluster-guruh, to'plam, to'da; Collection-yig'im, kolleksiya, to'plam; Flight-poda, qator; Group-guruh, Half-yarim, qism; Heap-g'aram, to'plam, tup; Knof-guruh, to'p; Line-qator; Mullitude-to'plam, ko'plik; Majority-ko'plik; Mass-massa; Minority-ozchilik; Number-son, miqdor; Parcel-guruh, to'da; Part-qism; Perantage-miqdor, qism; Portion-qism, ulush; Quantity-mikdor; Row-qator; Section-qism; Set-guruh, qator; Stock-guruh; Store-katta miqdor; Swarm-to'da, poda, gala.

Ingliz tilidagi jamlikni ifoda qiluvchi otlar aniq ma'noli otlar bilan birikkanda, jamlik ma'nosiga ega bo'lgan so'z birikmalari hosil bo'ladi. Aniqrog'i, agar gap "bo'rsiqlar galasi" haqida ketsa, «a cete of badges» deyiladi, tulkilar haqida gap ketsa, «a skulk of foxes» deyiladi, agar gap sherlar galasi haqida borsa, «a pride of lions» deyiladi. Agar gap yovvoyi to'ng'izlar haqida ketsa: «a singular of boars», agar gap xonaki cho'chqalar haqida yuritilsa, «a sounder of swine» deyiladi.

Xuddi shunday holatni qushlar galasi haqida gapirilganda ham kuzatish mumkin: Kakliklar galasi - a nye of pheasants; G'ozlar galasi - a guggle of geese; O'rdaklar galasi - a badling of ducks; Qizilishtonlar galasi - a fall of woodcock; bekas (snipe) nomli qush galasiga nisbatan «a wisp of snipe» ishlatiladi.

Bunday xususiyat faqatgina hayvon yoki qushlar galasiga nisbatan kuzatilmay, balki turli kasbga mansub kishilar to'dasi yoki guruhini ifodalashda ham namoyon bo'ladi. Masalan: A squirt of chauffeurs-haydovchilar guruhi, (to'dasi); A budget of politicians - siyosatdonlar guruhi; A cue of actors- aktyorlar to'dasi; A fleece of income-tax collectors-soliq yig'uvchilar to'dasi; A chucle of charwomen-farrosht xotinlar to'dasi.

Aniq predmet va miqdor ma'nosini anglatuvchi otlarning diaxronik tahlili shuni ko'rsatadiki, ular ingliz tili taraqqiyotining dastlabki davrlaridan mavjud bo'lgan. Lekin ular alohida morfologik ko'rsatkichlarga ega bo'lmagan.

Til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida bunday otlar, asosan, fransuz tilidan qabul qilingan so'zlar hisobiga kengaydi. O'zlashtirilgan so'zlarning asosiy qismi fransuzcha suffikslar yordamida hosil qilingan. Keyinchalik ana shu so'z yasovchi qo'shimchalar bilan german o'zaklarining qo'shilishi natijasida yasalgan so'zlar ingliz tilidagi jamlovchi otlarning sezilarli darajada ko'payishiga olib keldi.

Bunday otlar hozirgi ingliz tilida of predlogi vositasida jamlovchi ma'nosiga ega otlarga birikishidan hosil bo'ladi. Bular toifasiga ba'zi jamlikni ifodalamaydigan suffikslar yordamida yasalgan, ammo jamlikni anglatuvchi otlar ham qo'shilgan (army, audience, cabinet).

Xulosa. Yuqoridagi jamlovchi otlar har xil bir turdagi bir guruh, to'plam, yig'ilgan narsa, jonzo't, inson, hayvon va qushlarning mayda bo'laklarga bo'lingan qismini ifodalashda ham qo'llanadi. Bunday holatlarda "of" predlogi birikmalar yordamida to'da, gala, poda, kichikroq guruhni bildiradi va bu xususiyat partitiv ma'nodagi otlarni anglatadi (yuqoridagi misollarga qarang).

Ingliz tilidagi jamlovchi va partitiv otlarning tarixiy taraqqiyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mazkur otlar tizimi ingliz tili rivojlanishining barcha bosqichlarida muhim grammatik-semantik hodisa sifatida shakllanib borgan. Ularning taraqqiyoti tilning leksik, morfologik va sintaktik tizimidagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq holda yuz bergan (Arakin, 1985).

Xulosa. Tadqiqot natijalari qadimgi ingliz tilida jamlovchi otlar alohida grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'lmaganligini ko'rsatdi. Ushbu davrda jamlik ma'nosi asosan so'zning ichki leksik ma'nosi orqali ifodalangan. Jamlovchi otlarni aniqlashda semantik va sintaktik belgilar asosiy mezon bo'lib xizmat qilgan. Qadimgi ingliz tilida jamlikni ifodalovchi asosiy morfologik vosita *ge-* prefiksi bo'lgan. Suffikslar yordamida hosil qilingan jamlovchi otlar esa nisbatan kam uchragan va ular asosan *-scipe* hamda *-th* qo'shimchalari orqali yasalgan (Bately, 1980).

O'rta ingliz tili davriga kelib ingliz tilining barcha sathlarida muhim sifat o'zgarishlari yuz berdi. Ayniqsa, norman-fransuz tilining ta'siri natijasida ingliz tiliga ko'plab jamlovchi otlar va ularni yasovchi suffikslar kirib keldi. Bu esa jamlik ma'nosini ifodalovchi morfologik vositalarning rolini sezilarli darajada kuchaytirdi (Antilla, 1972). Fransuz tilidan kirib kelgan *-ery*, *-age*, *-hood*, *-dom*, *-cracy* kabi qo'shimchalar yordamida yangi jamlovchi otlar hosil qilindi va ularning semantik imkoniyatlari kengaydi.

Tadqiqot davomida XIX asr jamlovchi otlar tizimining rivojlanishida alohida bosqich bo'lganligi aniqlandi. Aynan shu davrda fransuzcha so'z yasovchi elementlar german o'zaklari bilan birikib, yangi jamlovchi otlarning hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. Natijada ingliz tilidagi jamlovchi otlarning tarkibi sezilarli ravishda boyigan. Bunday birliklar shaxslar, hayvonlar, qushlar, o'simliklar, predmetlar hamda ijtimoiy qatlamlarni ifodalash uchun faol qo'llanilgan.

Shuningdek, tadqiqot davomida zamonaviy ingliz tilida suffiksiz jamlovchi otlarning ham juda faol qo'llanilishi kuzatildi. *Army*, *audience*, *committee*, *family*, *government*, *jury*, *nation*, *population*, *society* kabi otlar morfologik jihatdan oddiy shaklda bo'lsa-da, semantik jihatdan jamlik ma'nosini ifodalaydi (Alexander, 1996). Bu esa ingliz tilida jamlik kategoriyasi faqat morfologik vositalar bilan emas, balki semantik va sintaktik vositalar orqali ham yuzaga chiqishini ko'rsatadi.

Maqolada ingliz tilidagi partitiv otlarning shakllanishi va qo'llanishi ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari partitiv birliklarning asosan "of" predlogi yordamida hosil bo'lishini ko'rsatdi. Masalan: *a herd of beasts*, *a number of men*, *a part of the people* kabi konstruksiyalar miqdor, qism yoki guruh ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu konstruksiyalar ingliz tilida jamlik va miqdor kategoriyalarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida ayrim yakkalik ma'nosini bildiruvchi otlar metonimik ma'no ko'chishi natijasida jamlik ma'nosida qo'llanadi. Masalan, *city*, *country*, *world*, *church*, *state* kabi otlar kontekstga qarab nafaqat joy yoki hududni, balki shu joyda yashovchi aholini ham anglatadi (Arutyunova, 1976). Bunday hodisa qadimgi ingliz tilidan boshlab zamonaviy ingliz tiligacha davom etib kelmoqda va ingliz tilining semantik taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida hayvonlar, qushlar va kasb egalari guruhlarini ifodalovchi maxsus jamlovchi birikmalar ham aniqlangan. Masalan: *a pride of lions*, *a skulk of foxes*, *a guggle of geese*, *a budget of politicians* kabi birikmalar ingliz tilining o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Bu birliklar ingliz xalqining tarixiy dunyoqarashi, madaniyati va obrazli tafakkuri bilan bog'liq holda shakllangan.

Mazkur tadqiqot natijalari ingliz tilidagi jamlovchi va partitiv otlarning nafaqat grammatik kategoriya, balki murakkab semantik-funksional hodisa ekanligini ko'rsatdi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi til tarixidagi ichki va tashqi omillar ta'sirida yuzaga kelgan. Ayniqsa, fransuz tilining ta'siri, metonimik ma'no ko'chishi, sintaktik konstruksiyalar va semantik kengayish jarayonlari ushbu birliklarning taraqqiyotida muhim rol o'ynagan.

Umuman olganda, ingliz tilidagi jamlovchi va partitiv otlarning diaxronik tahlili ularning kelib chiqish manbalari, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, semantik va grammatik xususiyatlari hamda zamonaviy ingliz tilidagi funksional imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ingliz tili grammatikasi, tarixiy tilshunoslik, semasiologiya va kognitiv lingvistika sohalarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslikka kirish. 2-qism. Leksikologiya va semasiologiya, grammatika. – Toshkent: NUU, 1999.
2. Aristotel. Analitika. – Moskva: Politizdat, 1978.
3. Arakin V.D. Istoriya angliyskogo yazyka. – Moskva: Prosveshchenie, 1985.
4. Arutyunova N.D. Predlozhenie i ego smysl. – Moskva: Nauka, 1976.
5. Ashurova D.U. "Vzaimodeystvie kognitivnoy lingvistiki, stilistiki i interpretatsii teksta" // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2003.
6. Akhmanova O.S., Mikaelyan G.B. Sovremennye sintaksicheskie teorii. – Moskva: Nauka, 1963.
7. Akhmanova O. et al. Syntax: Theory and Method. – Moscow, 1972.
8. Alexander G. Longman English Grammar. – Oxford, 1996.
9. Antilla R. An Introduction to Historical and Comparative Linguistics. – New York, 1972.
10. Bahnik K.S. The Determination of Stages in the Historical Development of the Germanic Languages by Morphological Criteria. – Paris, 1973.
11. Bakiyeva G.X. "Semantema: sodержanie i vyrazhenie" // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2003.
12. Bately J. The Old English Orosius. – London, 1980.